



THE ROLE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Madrakhimova Inobat Bahodirovna
Senior Lecturer at the Department of Pedagogy (PhD)
Alfraganus University Faculty of Social Sciences

Abstract

This article highlights the criteria for the effective implementation of innovative educational technologies and interactive methods in the educational process, which are one of the main factors in the quality of education.

Keywords: Innovative technology, pedagogical technology, teaching method, interactive method, pedagogical skill, educational process, teacher, student.

TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Madraximova Inobat Bahodirovna
Alfraganus universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti
Pedagogika kafedrasi (PhD) katta o'qituvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada ta'lim sifatining asosiy omillaridan biri bo'lgan innovatsion ta'lim texnologiyalari va interfaol metodlarni ta'lim jarayoniga samarali tatbiq etish me'zonlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsion texnologiya, ahurat c texnologiya, o'qitish ahura, interfaol metod, ahurat c mahorat, ta'lim jarayoni, o'qituvchi, talaba.



РОЛЬ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Мадрахимова Инобат Баходировна

Alfraganus University факультет социальных наук

Старший преподаватель кафедры Педагогика (кандидат наук)

Аннотация: в данной статье выделены критерии эффективного внедрения инновационных образовательных технологий и интерактивных методов в учебный процесс, которые являются одним из основных факторов качества образования.

Ключевые слова: Инновационная технология, педагогическая технология, метод обучения, интерактивный метод, педагогическое мастерство, образовательный процесс, учитель, ученик.

KIRISH

Innovatsion ta'lim texnologiyalari -bu ta'lim jarayonida sifat va samaradorlikini oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikning hozirgi taraqqiyot yo'nalishlariga mos bo'ladidan ta'lim faoliyati uchun shart-sharoitlarni yaratish uchun mavjud usullar va vositalarni qandaydir yangi yoki sifat jihatidan yaxshilashni o'z ichiga olgan ta'lim faoliyatini tashkil etish usulidir.

Bugungi kunda rivojlanayotgan ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, innovatsion g'oyalar, pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llash bugungi kun talabi bo'lmoqda, buning asosiy sababi shu paytgacha an'anaviy ta'lim jarayonida o'qituvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar esa ularni egallayotgan bilim, ko'nikmalarini o'zlari izlab topishlariga, mustaqil tarzda o'qib-o'rganishga, o'rgangan materiallarini tahlil qilishlariga, xattoki xulosalarni o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim egallashi va tarbiyalanishiga imkoniyat yaratadi va shu bilan birga boshqaruvchilik vazifasini bajaradi.



ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ta'lim jarayonida o'qituvchi-talaba asosiy diqqat markazda turadi. Shuning sababli oliy ta'lim dargoxlari va fakultetlarida malakali, tajribali kasb egalarini yetishtirib chiqarishda zamonaviy o'qitish metodlarini-interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratga oid bilim, malaka, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi-talabalarni bilimli, har tomonlama yetuk kadr bo'lishlarini ta'minlaydi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar olib kirish ko'zda tutilgan bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to'liq foydalaniladi.

Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni yanada oshirish orqali o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarni chuqur o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga qaratiladi. Interfaol metodlardan foydalanish dars samaradorligini oshirishga yaqindan yordam beradi. Interfaol ta'limning muxim o'lchovi : norasmiy bahs-munozaralar olib borish, o'quv-didaktik materialini erkin bayon qilish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soati kamligi, lekin seminar, amaliy mashg'ulotlar soatining ko'pligi, o'quvchilarning qobiliyatlarini ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma topshiriqlar bajarish va turli interfaol metodlardan tashkil topgan bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar sifatini yanada oshirishda katta ahamiyatga ega.

O'qitish jarayonini tashkil etishning asosiy shakli bu - darsdir. Bugungi kunda darsning hilma xil noan'anaviy turlari joriy qilinmoqda. Shu kabi darslar o'quvchining ijodiy qobiliyatini o'stirish, aqliy salohiyatini kuchaytirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish va har bir yangilikni tez va to'laqonli anglab olish ko'nikma va malakalarining rivojlanishiga yordam beradi. Dars jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarda ilmiy izlanishga bo'lgan qiziqishni to'laqonli shakillanishiga, ijodkorlik va bunyodkorlik qobiliyatlarini yuzaga chiqaradi. Natijada o'rganilgan bilim, ko'nikma va malakalar amaliy faoliyatda joriy qilinadi, o'zlashtirish sifati yana ham oshadi. Shu sababli o'qituvchining har tomonlama mahurat egasi bo'lishi va mavzularning



mazmuniga qarab darsni rejali tarzda olib borishi, dars mashg'ulotlari davomida barcha o'quvchilarni faol va ongli ishlashlariga erishishi muhimdir.

Interfaol ta'lim metodlari bir vaqtda bir nechta masalani hal etishga imkon beradi. Shundan eng asosiysi-o'quvchilarning muloqot olib borishida ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi, o'quvchi-talabalar orasida emostional aloqalar o'rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o'z tengdoshlarining fikr-muloxazalarini tinglashga o'rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi.

Shu bilan bir qatorda, amaliyotdan aniqlanishicha, dars davomida interfaol metodlarni qo'llash o'quvchi-talabalarning asabiy zo'riqishlarini ham bartaraf qiladi, ular faoliyatining shaklini almashtirib turish, diqqatlarini dars mavzusining asosiy jixatlariga jalb qilish imkoniyatini beradi.

NATIJA VA MUNOZARA

Dars strukturasi o'zgaruvchan bo'ladi. Ta'lim sohasidagi innovatsion texnologiyalar doimiy ravishda rivojlanib, ularning turlari kengayib boradi. Ular ta'lim muassasasi rivojlanishi va talabalar bilimining yanada rivojlanishini asosiy omili bo'lib hisoblanadi. Bunday texnologiyalar an'anaviy va innovatsion texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga olgan texnika va vositalar majmuasiga asoslanadi: o'quv adabiyotlari bilan mustaqil ishlash, audiovizual, multimedia vositalaridan foydalanish, tabaqalashtirilgan o'qitish usullari kabi didaktik texnologiyalar ham talabalarning har tomonlama yetuk bo'lib yetishishlariga zamin hozirlaydi. Zamonaviy pedagogik texnologiya fan asoslari bo'yicha o'quvchi talabalarning bilish faoliyatini maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish va amalga oshirishni nazarda tutadi.

Pedagog innovatsion texnologiyalarga asoslanib darsni tashkil qilar ekan, turli texnik vositalardan ham (kompyuter, proyektor, elektron doska va hokazo) foydalanishi tabiiy. O'qituvchining ish jarayonida innovatsiyalar qanchalik ko'p bo'lsa, dars sifati shunchalik ortadi. Har bir o'qituvchi ta'limga yakka tartibda yangilik olib kirishi mumkin. Innovatsion texnologiyalar o'qituvchi o'z faoliyatidan ko'ngli to'lmasligidan kelib chiqadi.



XULOSA

O'quv tarbiya jarayonlarini ilmiy metodik jihatdan mukammal tashkil etish muvaffaqiyatlar kalitidir. Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xos jixati shundan iboratki, ular o'qituvchi va tinglovchi o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati orqali yuzaga chiqadi.

O'qituvchi ish faoliyati o'quv - didaktik materialini bayon qilish, o'quvchilarning o'tilayotgan fanga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish, fikrini erkinlashtirish va e'tiqodini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil tarzad bajaradigan mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish, qolaversa tekshirish hamda baholashdan iborat. Bunda albatta bilim oluvchilarning yosh va fiziologiyasi, qiziqishi, bilim darajasi, fikrlash doirasi xisobga olingan holda o'tkaziladigan dars mashg'ulotlar nazarda tutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibragimova G.N. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari talabalarning kreativlik qobiliyatlapini rivojlantirish. I Monografiya. - T.: «Fan va texnologiyalar», 2016. -77-b.
2. Oliy ta'limda faol va interaktiv ta'lim texnologiyalari (darslarni o'tkazish shakllari): darslik / komp. T.G. Muxin. - Nijniy Novgorod: NNGASU, 2013. - 97 p.
3. Gushchin Yu.V. Oliy ta'limda interfaol o'qitish usullari // "Dubna" Xalqaro tabiat, jamiyat va inson universitetining psixologik jurnali, 2012. - No 2. -B. 1-18.